

“Kelajak soati” darsining 9-11- sinflar uchun mashgʻulot ssenariysi:

5-mavzu: 1-oktabr - Oʻqituvchi va murabbiylar kuni

Dars maqsadi: Yangi Oʻzbekistonda oʻqituvchi va murabbiylar maqomi, obroʻsi, ustoz va shogird burchi hamda odobi haqida maʼlumot berish. “Ustoz- otangdan ulugʻ” eʼtirofining izohi, interaktiv topshiriq va lavhalar orqali har bir oʻquvchida ustozlarga mehr-muhabbat uygʻotish, shogirdlik tushunchasini shakllantirish.



Aniq maqsadlar:

1. Oʻquvchilarga oʻqituvchi va murabbiylik kasbining mohiyati, kelib chiqish tarixi, oʻqituvchining jamiyatdagi oʻrni haqida tushuncha berish;
 2. Oʻzbekistonda oʻqituvchi va murabbiylarning maqomi va obroʻsini oshirish yoʻlida olib borilayotgan siyosiy islohotlar bilan oʻquvchilarni tanishtirish;
 3. Oʻqituvchi va murabbiylarning tarbiyadagi oʻrni, mehnatining ahamiyatini tushuntirish.
-



Asosiy gʻoyalar: Oʻquvchi har bir inson hayotida ustozning oʻrni beqiyos ekanini anglash, oʻqituvchilar mehnatini qadrlash va ularga ehtirom koʻrsatish. Ustozga hurmat - oʻz kelajagiga hurmat ekanini tushuntirish, ajdodlarimizdan meros boʻlib kelayotgan ustoz-shogird munosabatlarini asrab -avaylash.

Har bir bola – Yangi Oʻzbekistonning kelajagi. Prezident Shavkat Mirziyoyev aytganidek: **“Yurtimiz kelajagi siz, aziz farzandlarimiz qoʻlida.”**



Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

1. Aqliy va tushunchaviy darajada:

- Bola oʻqituvchi va murabbiylarning jamiyat va shaxs rivojidagi oʻrnini biladi;

- O'qituvchi mehnatini qadrlash, unga hurmat ko'rsatishning ijtimoiy ahamiyatini biladi;
- O'z hayotida ustozlardan olgan bilim va tarbiyaning kelajakka ta'sirini tushunadi.

2. Hissiy va qadriy yondashuvda:

- Ustozlar bergan bilim va tarbiyaning hayotda naqadar muhim ekanini qalban his qiladi.
- "Ustozga hurmat- o'z kelajagiga hurmat" tamoyilini shakllantiradi.

3. Amaliy ko'nikmalarda:

- O'z fikrini ravon, izchil va ta'sirli tarzda ifodalashni o'rganadi;
- O'z ustozlariga minnatdorchilik izhor etish madaniyatini amalda qo'llaydi;
- O'z kundalik hayotidagi harakatlarini **mazmunli qadriyat sifatida** ko'ra oladi.

4. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

- O'quvchilarda jamiyatdagi o'qituvchi va murabbiylarning o'rni, ularning mehnatini qadrlash tuyg'usini shakllantirish;
- Jamoa bilan ishlash, o'zaro yordam va hamjihatlik madaniyatini rivojlantirish;
- Yaxshi o'qituvchi va murabbiylar orqali ta'lim sifati va madaniy hayot taraqqiyotini tushuntirish;
- O'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida **qadriyatlarga asoslangan muloqot** paydo bo'ladi.

 **Metapredmet:** bu ta'limda o'quvchilarning faqat bir fan doirasida emas, **turli fanlar, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo'llay oladigan umumiy ko'nikmalarini** shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir.

Masalan,

- Ustoz haqida **tarixiy lavhalar tomosha qiladi** (tarix, adabiyot fani),
- Film tomosha qilib, **tassurotini aytadi** (san'at, muloqot),
- So'ngra bu harakatlar haqida **fikr bildiradi** (tanqidiy fikrlash, notiqlik),
— bu esa **metapredmet yondashuvining namunasidir**.

 **Dars hamkori:** Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti xodimlari. www.milliytarbiya.uz

 **Dars davomiyligi:** 45 daqiqa.

 **Tavsiya etilgan mashg'ulot shakli:** bilim beruvchi suhbat, video parchalar, o'yin elementlari va qo'shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

 **Materiallar to'plami:**

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar;

Dars tuzilishi 1 qism. Motivatsion

Darsning birinchi qismining maqsadi - o'quvchilarning mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kelgusi faoliyatiga bo'lgan motivatsiya mashg'ulot mavzusini aks ettiruvchi materialni ko'rish va muhokama qilishga asoslanadi.

2-qism. Asosiy

Asosiy qismda o'quvchilar darsning asosiy ma'nolarini tushunish va ochib berishga yo'naltiriladi. Shu maqsadda o'quvchilarga tasviriy materialni tahlil qilish, videolarni ko'rish va bilishga qaratilgan savollar taklif etiladi.

3-qism. Yakuniy

Dars g'oyalarini umumlashtirish, mashg'ulotga yakun yasash.

g'i taratgay ko'ngilga ziyo".